

XORAZM VILOYATI SHAROITIDA UZUMMING SHAROBBOP NAVLARI HOSILDORLIK KO'RSATKICHLARINI ANIQLASH

Bobojonov Otobek Xakimboy o‘g‘li

Urganch Davlat Universiteti o‘qituvchisi

Artikova Go‘zalxon Karimboyevna, Rahimboev San’atbek Omonboy o‘g‘li

Urganch Davlat Universiteti, Qishloq xo‘jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi yo‘nalishi talabalari

A R T I C L E I N F O .

Kalit so‘zlar: hosil, g’ujum, shingil, nav, sharobbop nav, gullah, meva, novda.

Annotatsiya

Mazkur maqolada uzumming sharobbop navlari: Rkasteli, Soyaki, Saperavi, Muskat susana, Muskat ottonel, Muskat vira va Mayskiy chyo‘rniy kabi navlarini xosildorlik ko‘rsatkichlari kuzatildi va ushbu navlarda bitta hosilli novdadagi uzumboshlar sonini va hosil berish koeffitsentini yoki tok tupidagi uzum boshlarning barcha rivojlangan novdalarga nisbatini aniqlash uchun dala kuzatuvlari olib borildi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl> © 2024 LWAB.

Dunyo qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bo‘lgan uzumchilik sohasini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida uzum navlarining hosildorligi va sifatini oshirish uchun eng yaxshi o‘stirish usullari, tok tupi kurtak yuklamasi meyorlari hamda uzum hosildorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash uchun maqbul usullar ishlab chiqilgan. Ushbu ishlamalarni ma’lum joy tuproq-iqlim sharoitlari va qo‘llanilayotgan nav xususiyatlaridan kelib chiqqan holda maqbullahtirish uzumchilik sohasining samaradorligini sezilarli oshirish imkonini beradi. [8]

Hosilni oldindan aniqlash, bundan asosiy maqsad hosilni o‘z vaqtida terib olishga tayyorgarlik ko‘rish hamda uning realizatsiyasini tashkil qilishdan iborat. Bu ish birinchi marta tok gullab g‘o‘ralar moshdek bo‘lgan vaqtda (iyun o‘rtalarida), ikkinchi marta esa, hosil pishishdan oldin (iyulda) o‘tkaziladi. Agar tok bahorgi sovuq, kuchli shamol, do‘l kabi tabiiy tasirotlar bilan zararlanmagan bo‘lsa, faqat birinchi aniqlash bilan kifoyalanish mumkin.[4]

Hosilni oldindan aniqlash quyidagicha amalga oshiriladi:

Har bir maydonda har bir to‘rtinch – beshinchi qatordagi har bir beshinchi tup hisoblash uchun belgilanadi. Bu ishni maydon dioganali bo‘ylab ham qilish mumkin. Bunda birinchi qatordagi ikkinchi to‘p, ikkinchi qatordagi uchinchi, to‘rtinch qatordagi beshinchi tup va shu yo‘nalishlar tuplar belgilab chiqiladi. Hisob uchun ajratilgan tupdagagi uzum boshlari sanab chiqiladi. Hosil bo‘lgan umumiyl sonni, hisoblash uchun ajratilgan tuplar soniga bo‘lib, o‘rtacha bir tupga to‘g‘ri keladigan hosil miqdori aniqlanadi. Chiqqan raqam o‘z navbatida bir gektardagi tuplar soniga ko‘paytirilib, gektar hisobiga to‘gri keladigan dastlabki hosil miqdori aniqlanadi. Bu ish har bir nav uchun alohida qilinadi. [3; 380-383 betlar].

Hosil miqdori har bir tupdagagi uzum boshi soni va ularning uzum boshlari og‘irligini hisoblagan holda,

Kielce: Laboratorium Wiedzy Artur Borcuch

har bir variantdagi hisobli tuplarda aniqlandi. Uzum boshining o'rtacha og'irligi tupning hosilini undagi uzum boshlar soniga bo'lish bilan, g'ujumining o'rtacha og'irligi – 100 dona g'ujumni tortish bilan aniqlandi.[5]

Novdalar hosildorligi, uzumning hosildorlik koeffitsiyenti, uzum boshi og'irligi kabi ko'rsatkichlar aksariyat holatda hosilning umumiyligi hajmini belgilab beradi Shu bois har bir tanlanayotgan navda ushbu ko'rsatkichlar tahlil qilish barpo etiladigan bo'lajak tokzorning potensial hosildorligini oldindan bashorat qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. [4].

Novda hosildorligi – tok tupidagi bitta rivojlangan novdaga to'g'ri keladigan hosil. Bu uzum boshi o'rtacha og'irligini hosil berish koyeffsiyentiga ko'paytirish yo'li bilan hisoblanadi [6; 381-bet].

Ilmiy tadqiqot uslubi. Fenologik kuzatuvlar X.CH.Buriyev va boshqalar, M.A. Lazarevskiy uslubi bo'yicha barcha variantlarida fenofazaning, ya'ni kurtaklarning o'sib chiqishi, gullahasi, mevalarning pishishi, novdalarning pishishi, tok novdalarida xazonrezgining boshlanishi va tugatilishi qayd etilgan. Novdalarning o'sishi har yili xazonrezgidan keyin tupdagi novdalarni sanash asosida aniqlandi. [1,7]

Tadqiqot natijalari.

Tok navlarining asosiy belgilaridan biri bu uning hosildorlikni embrional, potensial, haqiqiy hosildorlik kabi xillari bor. Tok tupining hosildorlik ko'rsatkichlari shu yilgi pishib yetilgan navlaridagi qishlovchi kutraklarda shakllangan to'p gul murtagini miqdori va ularni davridagi holatni aniqlash yo'li bilan belgilanuvchi (biologik hosildorlik), har bir tok tupi yoki bir gektar maydonidagi yetishtirilgan hosilni umumiyligi miqdori bilan belgilanuvchi (xo'jalik hosidorligi), shuningdek eng oliv sharoitda qishgi kurtaklarning 100% hosil berish qobiliyatiga ega bo'lgandagina olish mumkin bo'lgan (haqiqiy) hosildorlik ko'rsatkichi ya'ni haqiqiy hosildorlik muhim ahamiyat kasb etadi. Bulardan tashqari tok tupi mahsuldarligini aniqlashda uning hosildorlik koeffitsienti va navdalar hosilchanligi eng muhim nav belgilaridan hisoblanadi. Shuning uchun biz tajribada o'rganilayotgan uzumning sharobbop navlarini hosildorlik koeffitsentini ya'ni bitta hosilli novdadagi uzumboshlar sonini va hosil berish koeffitsentini yoki tok tupidagi uzum boshlarning barcha rivojlangan novdalarga nisbatan aniqladik. Navlarning hosildorligi yer birligiga yoki bir gektarga to'g'ri keladigan hosil novdalari soniga shu novdalardagi mavjud uzum boshlar soniga va har bir uzum boshning o'rtacha og'irligiga bog'liqdir. Bu omillar bo'yicha yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan Uzumning sharobbop navlari har doim yer birligidan yuqori hosil beradi.[6]

Hosildorlik koyeffsiyenti –bitta hosilli novdadagi uzum boshlarining soniga aytildi. Navning asosiy belgilaridan hisoblanib, xo'raki va kishmishbop navlarda odatda 1, ba'zan 2, sharobbop navlarda esa 2-3 ta bo'lishi mumkin. Bu ko'rsatkichni tok kesish vaqtida novdalarni kerakli miqdorda va uzunlikda qoldirish, tokning oziqa va suv rejimini yaxshilash, novdalar uchini chilpish, chekanka qilish, tok novdalarini simbag'azlarga egibroq bog'lash kabi tadbirlar yordamida oshirish mumkin.

1- jadval Uzumning sharobbop navlarini hosildorlik ko'rsatkichlari (2022-2023-yillar)

№	Navlar	Hosilli novdalar, %			Bir hosilli novdaga to'g'ri keladigan uzum boshining o'rtacha soni, dona	Bir novdaga to'g'ri keladigan uzum boshining o'rtacha soni, dona
		bir uzum boshli	ikki uzum boshli	jami		
1.	Rkatsiteliy (nazorat)	42	13	55	1,25	0,6
2.	Soyaki	43	9	52	1,2	0,6
3.	Saperavi (nazorat)	41	17	58	1,4	0,75
4.	Muskat vira	42	20	62	1,5	0,8
5.	Muskat ottonel	44	21	65	1,6	0,8
6.	Muskat susana	45	14	59	1,4	0,75
7.	Mayskiy chyo'rniy	40	16	56	1,3	0,7

Hosil berish koyeffsiyenti – tok tupidagi uzum boshlarining barcha rivojlangan novdalarga bo‘lgan nisbati. Uzum naviga qarab 0,2 dan 2 va undan ortiq bo‘lishi mumkin. Bu ko‘rsatkich xo‘raki navlarda boshqa navlarga nisbatan past bo‘ladi. Hosil berish koyeffsiyenti tuproq iqlim sharoitlari, suv va boshqa agrotexnika tadbirlari tasir ko‘rsatadi.

Tokning hosildorligi ko‘rsatkichlaridan biri uzum boshlarining o‘rtacha og‘irligidir. Bu ko‘rsatkich ayniqsa uzum naviga qarab 50-100 g dan 1,5-2 kg gacha va undan ham ortiq bo‘lishi mumkin. Bu ham yuqorida qayd etilgan agrotexnika tadbirlari va boshqa sharoitlarga bog‘liq.

Tok tupining hosildorligini aniqlashda novda hosildorligi ko‘rsatkichidan foydalaniladi.

Tajribada o‘rganilgan Uzumning sharobbop navlarini hosil novdalari ko‘rsatkichlari har xil bo‘lishi aniqlandi. 1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, bunda eng ko‘p hosili novdalarning ko‘p bo‘lishi Muskat vira va Muskat ottonel navlariida 62-65% ni tashkil qildi. Bitta hosil novdadagi uzum boshlari soni 1,5-1,6 tagacha oshdi. Bunda ko‘rinib turibdiki, Uzumning sharobbop navlari tok tupidagi hosil novdalari navga bog‘liq ravishda o‘zgardi. Tajribada o‘rganilgan uzumning sharobbop navlarini hosilli novdalarini strukturasining tahlil qilinganda ular soni 1 va 2 uzum boshli novdalardan iborat ekanligi kuzatildi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki hosilli nodalarni aksariyat qismi 2-uzum boshli novdalardan iborat bo‘ldi. Shunday qilib o‘rganilayotgan uzumning sharobbop navlarida rivojlangan novdalar soni hamda hosilli novdalar soni bo‘yicha bir biridan farq qiladi. Hosilli novdalar strukturasiga ko‘ra ular 1 va 2 uzum boshli novdalarga bo‘linadi. Hosilni asosiy qismi deyarli 80% dan yuqorigi 2 boshli uzum boshli novdalarida bo‘ladi. Hosil novda va rivojlangan novdalar soni bo‘yicha eng kam Soyaki navida 52 % bo‘ldi.

Xulosa.

1. Shunday qilib, o‘rganilayotgan uzumning sharobbop navlarida rivojlangan novdalar soni hamda hosilli novdalar soni bo‘yicha bir biridan farq qiladi. Hosilli novdalar strukturasiga ko‘ra ular 1 va 2 uzum boshli novdalarga bo‘linadi.
2. Tajribada o‘rganilgan uzumning sharobbop navlarini hosilli novdalarini strukturasining tahlil qilinganda ular soni 1 va 2 uzum boshli novdalardan iborat ekan. O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, hosilli novdalarni aksariyat qismi 2-uzum boshli novdalardan iborat bo‘ldi.
3. Sharobbop uzum navlarida eng ko‘p hosilli novdalarning bo‘lishi Muskat vira va Muskat ottonel navlariida 62-65% ni tashkil qildi. Bitta hosil novdadagi uzum boshlari soni 1,5-1,6 tagacha bo‘lganligi kuzatildi. Hosil novda va rivojlangan novdalar soni bo‘yicha eng kam Soyaki navida 52 % bo‘ldi.

Adabiyotlar

1. Buriyev X.CH., Yenileyev N.SH. va b. Mevali va rezavor mevali o‘simpliklar bilan tajribalar o‘tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi. – T., 2014. – 64 b.
2. Lazarevskiy M.A. Metodi botanicheskogo opisaniya i agrobiologicheskogo izucheniya sortov vinograda // Ampelografiya SSSR. – M.: Pishepromizdat, 1946. – T.I. – S. 347-400.
3. Nosirovich, F. J., Qizi, Q. S. A., & O‘G‘Li, B. O. X. (2021). UZUMNING SHAROBBOB NAVLARINI FENOLOGIK FAZALARINI O ‘TISHI VA HOSILDORLIK KO ‘RSATGICHLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 1(5), 380-387.
4. Fayziyev, J. N., Xayitov, J. K. O‘., & Bobojonov, O. X. O‘. (2022). UZUMNING ISTIQBOLLI SHAROBBOB RANGDOR VA OLTINDAY NAVLARI HOSILDORLIGI VA SIFATIGA XOMTOK MEYORINING TA’SIRI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(7), 79-86.

5. Xakimboy o‘g‘li, B. O. (2023). XORAZM VILOYATI SHAROITIDA YETISHTIRILGAN UZUMNING XO ‘RAKI NAVLARI UZUM BOSHI VA G‘UJUMINING MEXANIK XUSUSIYATLARI VA KIMYOVIY TARKIBI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 262-264.
6. Xakimboy o‘g‘li, B. O. (2023). MEVA VA SABZAVOTLARNI SAQLASHDAGI NAM YO ‘QOTISH VA SUV BUG’LATISH TEZLIGINI TAHLIL QILISH. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 265-268.
7. Xakimboy o‘g‘li, B. O. (2023). HAYVONLARDAN OLINADIGAN DORIVOR PREPARAT TURLARI, ISHLATILISHI VA AHAMIYATI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(7), 1-5.
8. Bobojonov, O. X., Sattorberdiyeva, N. M., & Sh, O. G. (2023). OSISHNI BOSHQARUVCHI MODDALARNI POMIDORNING CHERRI NAVI HOSILDORLIGIGA TA’SIRI. *Gospodarka i Innowacje.*, 42, 539-542.